

SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY OF THE SASANIAN PERIOD

*O`zMU Tarix fakulteti Tarix yo`nalishi
2- bosqich talabasi Urolov Orzubek
e-mail : orzubekurolov06@gmail.com
tel: +998 – 99 – 500 – 75 – 68*

Abstract. This article delves into the rich tapestry of sources pertaining to the Sassanid era, a pivotal period in Persian history (224-651 CE). It critically examines a variety of primary sources, including archaeological findings, inscriptions, numismatic evidence, and contemporary literary texts. By analyzing these materials, the article seeks to illuminate the socio-political, cultural, and religious dynamics of the Sassanid Empire. Special attention is given to the interplay between Persian and neighboring cultures, as well as the influence of Zoroastrianism and other belief systems. Furthermore, the article addresses methodological challenges in source interpretation, emphasizing the need for interdisciplinary approaches to fully understand this complex historical landscape.

Key words. Archaeological monuments, written sources, material sources, Firuzabad.

ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ САСАНИДСКОГО ПЕРИОДА

Абстрактный. Эта статья углубляется в богатый набор источников, относящихся к эпохе Сасанидов, ключевому периоду в истории Персии (224-651 гг. н.э.). В нем критически рассматриваются различные первоисточники, включая археологические находки, надписи, нумизматические свидетельства и современные литературные тексты. Анализируя эти материалы, статья стремится осветить социально-политическую, культурную и религиозную динамику империи Сасанидов. Особое внимание уделяется взаимодействию персидской и соседних культур, а также влиянию зороастризма и других систем верований. Кроме того, в статье рассматриваются методологические проблемы интерпретации источников, подчеркивая необходимость междисциплинарных подходов для полного понимания этого сложного исторического ландшафта.

Ключевые слова. Археологические памятники, письменные источники, материальные источники, Фирузабад.

SOSONIYLAR DAVRINING MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqola Fors tarixidagi muhim davr (milodiy 224-651) bo`lgan Sosoniylar davriga oid manbalarning boy guruhlari o’rganadi. U turli xil

birlamchi manbalarni, jumladan arxeologik topilmalar, yozuvlar, numizmatik dalillar va zamonaviy adabiy matnlarni tanqidiy ko‘rib chiqadi. Maqolada ushbu materiallarni tahlil qilish orqali Sosoniylar sultanatining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va diniy dinamikasini yoritishga intiladi. Fors va qo‘shti shni madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga, shuningdek, zardushtiylik va boshqa e’tiqod tizimlarining ta’siriga alohida e’tibor beriladi. Bundan tashqari, maqola manbalarni talqin qilishda metodologik muammolarni ko‘rib chiqadi va bu murakkab tarixiy manzarani to‘liq tushunish uchun fanlararo yondashuvlar zarurligini ta’kidlaydi. Oxir oqibat, u sosoniylar merosi va uning keyingi salomlarga ta’sirini chuqurroq tushunishga hissa qo‘shishni maqsad qilgan

Kalit so‘zlar. Arxeologik yodgorliklar, yozma manbalar, moddiy manbalar, Firuzobod.

Kirish. Sosoniylar davlati, Sosoniylar imperiyasi kabi nom bilan atalgan davlatni Eron tarixshunosligida Erondagi 4-sulola va ikkinchi imperiya sifatida tasniflaydilar¹. Ya’ni bu sof eroniy xalqning hukumat elitasiga kelganligini anglatadi. Sosoniylar davri haqida bunday deyilishining ham bir qancha sabablari mavjud. Sababi qadimgi Old Osiyoning yirik forsiyzabon imperiyasi sanalgan Ahamoniylar imperiyasidan keyin, Eron zamini bir qancha davr oralig ‘ida yunon-makedon, makedon, skif xalqlari tomonidan shakllantirilgan davlatlar tarkibida bo‘lib turdi. Bu davlatlar, Makedoniyalik Aleksandr imperiyasi, Salavkiylar va Parfiya davlatlari edi. Shu sabab ham Sosoniylarni tadqiqotchilar sof eroniy imperianing davomchisi deb e’tirof etishadi va islomgacha bo‘lgan Eron tarixining eng yuksak davri sifatida ko‘rishi² Ushbu davlat Eronning qadimgi va ilk o‘rta asrlarning boshi tarixida muhim o‘rin tutgan yirik imperiyalardan biri bo‘lgan Sosoniylar davlati, nafaqt Eron, balki O‘rta OSiyo tarixida ham muhim o‘rin tutgan. Sosoniylar davri tarixini o‘rganish orqali Eron va Turonning ilk o‘rta asrlariga oid bo‘lgan tarixini ochish imkonini beradi. Qadimgi tarixiy manbalarda Sosoniylar davrig oid ma’lumotlar bizga bir qancha yetib kelgan bo‘lib, davlat tarixiga oid manbalar ham moddiy, ham yozma tarzda saqlanib qolgan.

Adabiyotlar tahlili. Sosoniylar imperiyasini o‘rganish va ularni tadqiq qilish bo‘yicha bir qancha ishlar olib borilgan bo‘lib, asosan, mahalliy fors tarixichilari bilan birgalikda ingliz va boshqa olimlar ham ko‘plab tadqiqot ishlarini olib borgan. Umumiylar Eron haqida yozgan ilk tarixchi arman tarixchisi Xachatur Jugayetsi³ sanaladi. Uning Eron tarixi asarida ham sosniylar haqida ma’lumotlar uchraydi.

¹ Dr.Gianpaolo Savoia-Vizzini An Introduction to the Sasanian Dynasty\\ <https://www.cais.soas.com>

² Alonso Constenla Cervantes Sasanian Empire\\ https://www.worldhistory.org/Sasanian_Empire/

³ O‘zbekiston tarixi : xrestomatiya III jild.\\ A. Asqarov va boshq. Toshkent :O‘zbekiston, 2023. 253 b

Shuningdek ingliz olimlaridan M.Byorns⁴, K.Brunner⁵, K.Metyu⁶; nemis olimlaridan H.Borm⁷, mahalliy eronlik olimlardan Mustafo Fag‘furiy⁸, Turoj Daryaye⁹, Shokat Esmailzoda¹⁰larning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sosoniylar davri manbalari va tarixshunosligini tahlil qilish uchun mustahkam asos yaratishga qaratilgan. Birlamchi manba tahlili, kontekstual tushunish va tarixshunoslik sharhini birlashtirgan holda, ushbu tadqiqot yangi tushunchalarni taqdim etishga va Sosoniylar imperiyasi bo‘yicha davom etayotgan ilmiy munozaraga hissa qo‘sishiga intiladi.

Ushbu keng qamrovli yondashuv mavjud manbalar va metodologiyalarning kuchli va chekllovlarini tan olgan holda, Sosoniylar davrini nozik tushunishni ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. Sosoniylar davriga oid bo‘lgan Markaziy Osiyo tarixiga oid yozma manbalar, arman tarixchilari tomonidan yozilgan manblar, shuningdek, qoyatoshlardagi epigrafik manbalar ham bizgacha yetib kelgan yozma manbalar qatoriga kiradi.

Arxeolgik o‘rganishlar va Sosoniylar davrini arxeologik jihatdan tadqiqotlar XIX asrdan Yevropalik olimlar tomonidan Sharqni kengqamrovli o‘rganilishi yevropaliklar, ko‘plab ingliz tadqiqotchilaridan tashqari siyosiy agentlar, elchilar va askarlar ham sosoniylar davri madaniyati va arxeologiyasi boylik orttirish maslasida tadqiq etishni boshlashgan va ular Sosoniylar davriga oid ko‘plab ostodonlarni topishadi¹¹. Mazkur topilmalar orqali esa Sosoniyla davriga oid madaniyat va tturmush tarsi haqida ma’lumot olish imkoniyatini berdi.

YuNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Fors mintaqasida joylashgan arxeologik asosiy qismi Sosoniylar davriga oiddir.¹² Ma’lumki, Eronning janubi-g ‘arbiy qismini egallovchi ma’muriy huduiy tuzilmasi sanaladi. Mazkur mintaqah Islomgacha bo‘lgan yirik ma’muriy hudud bo‘lgan va Sosoniylar imperiyasining rivojlangan mintaqalaridan biri sanalgan. Fors mintaqasida olib borilgan arxeologik kuzatuvlarnatijasida ilk o‘rta asrlar davriga oid, xususan,

⁴ Boyce, Mary (1984). Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices. Psychology Press. P 252.

⁵ Brunner, Christopher (1983). "Geographical and Administrative divisions: Settlements and Economy". In Cambridge University Press. pp. 747–778

⁶ Canepa, Matthew (2018). The Iranian Expanse: Transforming Royal Identity Through Architecture, Landscape, and the Built Environment, 550 BCE–642 CE. Oakland: University of California Press.

⁷ Börm, Henning (2007), Prokop und die Perser. Untersuchungen zu den Römisch-Sasanidischen Kontakten in der ausgehenden Spätantike, Stuttgart: Franz Steiner

⁸ Mostafa Faghfoury Ancient Iranian Numismatics.Jordan Center for Persian studies, 2020. P 160

⁹ Daryai, Turaj; Rezakhani, Khodadad (2017). "Sassanian Empire". Daryae, Touraj (ed.). Kings of the Seven Climates: A History of the Ancient Iranian World (3000 - 651 BC) . UCI Jordan Center for Persian Studies. Pages 1–236..

¹⁰ Shokat Esmailzadeh. The Sassanian Archaeological Landscape. <https://toirantour.com/blog/the-sassanian-archaeological-landscape/>

¹¹ St John Simpson. Sasanian Archaeology Settlements, Environment and Material Culture.\

<https://www.archaeopress.com/Archaeopress>

¹² Sasanid Archaeological Landscape of Fars Region\ <https://whc.unesco.org/en/list/1568/>

Sosoniylar davriga oid yirik tarixiy markazlar o‘rganildi. Ushbu yodgorliklar qatoriga viloyat hududida joylashgan tarixiy Firuzobod shahri hududida joylashgan atrofida qazilgan Qa’layi do‘xtar, shahonshoh Ardashir tomonidan o‘yilgan relyefli bo‘rtma tasvirlar(ular qatoriga Ardashiening Arda janggi manzarasi, Ardashirning taxtga chiqish tasvirlari yaxshi saqlangan) ga duch kelish mumkin¹³. Mazkur tarixiy shahar Bugungi kunda Fors viloyatidagi yirik shahar sanalgan Sherozdan 30 km uzoqlikda joylshgan. Qadimgi manbalarda Gur nomi bilan ham ataladi¹⁴. Shuningdek, bugungi Eron hududida joylashgan Omul shahridagi yirik olov ibodatxonasi esa sosoniylarning diniy e’tiqodi haqida tasvvur hosil qiladi. Mazkur hududlarda joylashgan yirik shahar qoldiqlari va saroylar, zardushtiylik ibodatxonalar, saroylarda joylashgan yirik haykallar va bo‘rtma tasvirlar Sosoniylar davri san’at va me’morchilik haqida tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Shu bilan birga Sosoniylarning harbiy tayyorgarligi, aholi va yuqori qatlama vakillarning kiyinish madnaiyati haqida bilib olish imkonini beradi. Shu bilan birga arxeologik qazishmalar davomida aniqlangan sopol buyumlar va tangalar ham mazkur imperiya haqida bizga ko‘plab ma’lumotlar olish imkonini beradi. Eronlik tarixchi olim Mustafo Fag‘furiyning tadqiqotlar, asosan, sosoniylar davriga oid bo‘lgan tangalar va pul munosabatlariga bag‘ishlangan, Yazdgird, Pero‘z, Balash davrida zarb etilgan tangalarini batafsil o‘rgangan¹⁵.

Sosoniylar davriga oid bo‘lgan moddiy-arxeologik manbalar bilan bir qaorda ko‘plab yozma manbalar ham saqlanib qolgan. Sosoniylar davri bo‘yicha ilk o‘rta asrlarda, arman, fors, vizantiya, xitoy manbalari, shuningdek, turkiy manbalarda ham bir qancha ma’lumotlar yetib kelgan.

Bizga ma’lum bo‘lgan Sosoniylar haqida ko‘plab yozma manbalar arman tarixchilari va arman yozma manbalarida uchraydi. Arman manbalarida Parfiyaning qulashi va sosoniylarning taxtga chiqishi¹⁶, Yazdgird II¹⁷, Pero‘z¹⁸, shuningdek armanlar va sosoniylar¹⁹, sosoniylar va eftallar²⁰ o‘rtasidagi munosabatlar haqida ham ma’lumotlar yetib kelgan. Ma’lumki armanlar nasroniy diniga e’tiqod qiladi. Arman hukmdorlari tomonidan yozib qoldirilgan, asosiy tarixiy manbalar cherkovlar va qaydnomalarda qolganligi sabab ham arman tarrixshunosligidan bizga ilk o‘rta asrlarning eng yirik manbalari saqlanib qolgan. Armanlar tomonidan yozilgan qadimgi manbalar agafangellar deb nomlangan. Mazkur asarlar Armanistonda IV asrda tarqalayotgan xrisianlik dini haqida ma’lumotlar joy olgan. Shu bilan birga

¹³ Shokat Esmailzadeh. The Sassanid Archaeological Landscape. <https://toirantour.com/blog/the-sassanid-archaeological-landscape/>

¹⁴ Firuzabad. <https://www.britannica.com/place/Firuzabad>

¹⁵ Mostafa Faghfouri Ancient Iranian Numismatics.Jordan Center for Persian studies, 2020. P 160

¹⁶ O ‘zbekiston tarixi : xrestomatiya II jild.|| A.Asqarov va boshq. Toshkent :O ‘zbekiston, 2023.382 b

¹⁷ O ‘zbekiston tarixi : xrestomatiya II jild.|| A.Asqarov va boshq. Toshkent :O ‘zbekiston, 2023.396 b

¹⁸ O ‘zbekiston tarixi : xrestomatiya II jild.|| A.Asqarov va boshq. Toshkent :O ‘zbekiston, 2023.399 b

¹⁹ O ‘zbekiston tarixi : xrestomatiya II jild.|| A.Asqarov va boshq. Toshkent :O ‘zbekiston, 2023.395 b

²⁰ O ‘zbekiston tarixi : xrestomatiya II jild.|| A.Asqarov va boshq. Toshkent :O ‘zbekiston, 2023.402 b

agafangellarning ko‘p qismida qadimgi davlatlarning ichki va tashqi siyosati va arxeologik hududlar haqdialancha haqqoniy bayon etilgan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan Agafangellardagi haqqoniy tarixiy faktlar va diniy naqlar, shuningdek asotir-u rivoyatlarning barchasi aralashib ketgan. Biroq, asarda Ardashir va uning Eron taxtiga chiqishi va armanlar masalasiga oid ma’lumotlar yaxshi saqlanib qolganligi bilan e’tiborga loyiqidir²¹. Arman manbashunosligida yana bir yirik manba bu Xachatur Jugayetsining Eron tarixi asari sanalib ushbu asar XVIII asrda yozilgan bo‘lsa ham qadimgi dunyo Eron tarixiga oid materiallar mavjud²².

Shuningdek, saljuqiyalar vaziri sanalgan Nizomulmulkning Siyosatnoma asarida ham davlat boshqaruvi haqida yozib o‘tganlarida Shopur II, Shoh Parviz²³, shoh Bahrom²⁴ haqida hikoyatlar keladi. Aynan, mazkur hukmdorlarning faoliyati haqidagi hikoyatlar asarning fasllarida keladi. Nizomulmulk ushbu hukmdorlarning siyosiy hayoti va davlat boshqaruvi andazasini keltirib o‘tgan va sosoniyalarda bir qancha muddat hukm surgan diniy mafkura bo‘lmish mazdakiylik haqida ham yozib o‘tganligi bilan qimmatlidir. Asarda mazdakiylik g‘oyasi va uning mafkuraviy jihatlari haqida batafsil ma’lumot berilib ushbu g‘oyaning umumiyligi ta’limotlari manbaning faslida keltirib o‘tilgan²⁵.

Mazkur tadqiqotchilar tomonidan yozilgan ilmiy kitoblar, maqola va risolalar Sosoniyalar davrining u yoki bu qirrasini ochib beradi. Masalan, Shokat Esmailzoda Sosoniyalar davriga oid arxeologik va arxitektura yodgoliklarini o‘rgangan bo‘lsa, Alireza Shahmohammadpur, Hamidreza Baxshandahfard, Askar Mohammadmuradiy kabi tadqiqotchilar Sosoniyalar davriga oid Bishapur saroyida Xoch shaklidagi gumbaz mavjudligini asoslash ishlarini amalga oshirgan²⁶, Mustafa Fag ‘furiy tangashunoslik maslalarini o‘rgangan. Olim Eron tarixining islomgacaha va islomdan keyingi davr tangalari va tangashunoslik masalalari bilan shug‘ullangan va qadimgi tangalarning Eronning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tarixiga oid jihatlarini tadqiqi etgan. Tadqiqotlar natijasida Qadimgi Eronda shakllangan davlatlarda pul munosabatlari va tangashunoslik masalasi²⁷, bilan birgalikda tangashunoslik, Eron davlatchiligidagi paydo bo‘lgan tangalarning Ahamoniylar, Parfiya va Sosoniyalar davri tangalaridagi farqlar va ularning o‘xshashliklari tahlil qilgan²⁸.

²¹ О ‘zbekiston tarixi : xrestomatiya II jild.\| A.Asqarov va boshq. Toshkent :О ‘zbekiston, 2023

²² О ‘zbekiston tarixi : xrestomatiya II jild.\| A.Asqarov va boshq. Toshkent :О ‘zbekiston, 2023

²³ Низомулмулк. Сиёсатнома. Тошкент: Ёшлар матбуоти, 2023. 91 б

²⁴ Низомулмулк. Сиёсатнома. Тошкент: Ёшлар матбуоти, 2023.

²⁵ Низомулмулк. Сиёсатнома. Тошкент: Ёшлар матбуоти, 2023.

²⁶ Alireza Shahmohammadpour, Hamidreza Bakhshandehfard, Asghar Mohammadmoradi. Feasibility Study of Existence of a Dome over the Cruciform Palace of Bishapur in Sasanian Times

²⁷ Mostafa Faghfouri Ancient Iranian Numismatics.Jordan Center for Persian studies, 2020. P 160

²⁸ Mostafa Faghfouri Iranian Numismatic Studies. A Volume in Honor of Stephen Album. Published by CNG, Lancaster, 2017. 256 p

Eronshunos olim Turoj Daryaye esa Sosoniylarning sivosiy tarixini o‘rgangan. Daryayening asosiy o‘rganish obyekti aynan Sosoniylar va ularning hokimiyatga kelish jarayonlari, jumladan, Ardashirning kelib chiqishi va uning siyosiy hokimiyatga kelishi Sosoniylar davlatiga asos solish jarayonidagi siyosiy jarayonlar²⁹, Shopur va Yazdgird IIning siyosiy faoliyati va Sosoniylar davridagi huquqiy maslalarni³⁰ ham tadqiq qilgan

Sosoniylar davri ijtimoiy hayoti, kalendarlar va vaqt o‘lchovi bo‘yicha Sh.Taqizoda sosoniylar davrida muomalada bo‘lgan kalendar va vaqt o‘lchovi, uning Old Osiyo davlatlarida qabul qilingan oy hisobiga asoslangan kalendar tizimi haqida ma’lumot berib o‘tgan³¹.

Xulosa. Sosoniylar davrini tadqiq qilish turli manbalar va metodologiyalarni birlashtirishni talab qiladi. Tarixshunoslilik va manbashunoslilikka yondashuvlarning xilma-x illigi tarixning ushbu muhim sahifasini tushunish uchun yangi qirralarini ochadi, bu esa uni ilmiy va ta’lim mazmuni uchun dolzarb qiladi.

Shuningdek sosoniylar davrini o‘rganish Old Osiyoda III – VII asrlaridagi ijtimoiy iqtisodiy hayoti va tashqi siyosiy masalalarini aniqroq yoritish va tadqiq qilish imkonini beradi.

²⁹ Touraj Daryaee Ardashīr and the sasanians’ rise to power . Anabasis studia classica and orientalia 1(2010) file:///C:/Users/User/Downloads/Ardashir_and_the_Sasanians_Rise_to_Power%20(1).pdf

³⁰ Touraj Daryaee The middle persian text sur i saxwan and the late sasanian court. California State University, Fullerton publishing. file:///C:/Users/User/Downloads/The_Middle_Persian_Text_Sur_i_Saxwan_an.pdf

³¹ Taqizadeh SH. The Old Iranian Calendars Again. Bulletin of the School of Oriental and African Studies. <https://www.cambridge.org/core/search?filters%5BauthorTerms%5D=S.%20H.%20Taqizadeh&eventCode=SE-AU>